

Xoja Ahmad Yassaviy asrlar mobaynida turkiy xalqlar ruhoniy hayotiga rahnamolik qilgan va hozirgi davrlarga qadar tasavvuf, adabiyot, madaniyat, hatto siyosat jabhasida ta'sirini o'tkazib kelayotgan buyuk siymodir.

"Yassaviy - Islomga kirishning oxirgi va Islomiyatning ilk shoiri-ideologi ediki, xuddi shu ma'noda buyuk Sharq Renessansining yuzaga chiqishida Dantega o'xshab ish ko'rmak uning qismatiga tushdi", deydi professor Yashar Qoraev. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy faqat yangi tariqat yaratuvchisi sifatida emas, balki turkiy tasavvuf adabiyotining ilk ijodkori sifatida ham ulug' va unutilmas ishni amalga oshirgan.

Mashhur mutasavvif olim va shoir So'fi Olloyor avlodlarga Yassaviy hazratlaridan "ulug' bir kitob" meros qolganligini aytadi. Bu hikmatlar majmuasi ekanligi aniq. Ammo ushbu nodir kitobning qadimiy qo'lyozmasi saqlanmagan. Saqlanib qolgan bo'lsa-da, haligacha topilgani yo'q. Muammolarning muammosi ana shu. Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar, adolatsiz va biryozqlama tanqidlar, bir-biriga zid munozaralar - bularning deyarli hammasi asosan ana shu zamindan paydo bo'lgan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, "Devoni Hikmat" va mualliflik masalasi yigirmanchi asrning boshlarida Ovrupo sharqshunoslari tomonidan o'rta qo'yilgan bo'lib, Yassaviy adabiy merosini ta'qiqlash va tahqirlashda sho'ro davlati bundan nihoyatda mohirlik bilan foydalangan. Oqibatda professor P.M.Melioranskiyning Germaniyada bosilgan "Islom qomusi" dagi hikmatlarning Qozon bosmasiga oid fikrlari asta-sekin "Devoni Hikmat" ning ildiziga umuman bolta urish darajasiga yetkazilgan edi. Hikmatlarning tili, uslubi va tarixi bilan boshlangan fikr-mulohazalar keyinchalik ularning g'oyaviy mohiyati, tarbiyaviy ahamiyatini keskin qoralash bilan uyg'unlashtirilib yuborilgandi. Fitrat domladek ulkan olimning ham hikmatlarda ifodalangan diniy-irfoniy haqiqatlarga sinfiylik nuqtai nazaridan baho berishlari - zo'ravon mafkura ko'ndalang qo'ygan majburiyat edi. Buni bajarmaslikning esa iloji yo'q edi. Aks holda, Fitrat domla, Yassaviy ijodiyotini ijobiy baholashga uringan marhum olimimiz professor Ergash Rustamovdan ham ming chandon og'ir ahvolda qolishlari hech gap emasdi. Bugun hammasi juda oson ko'rinadi. Chunki Yassaviy ijodiyoti endi "xavfli maydon" emas...

Yurtimizda yassaviyshunoslikdagi yangilanish qayta qurish va oshkoralik hosilasi bo'lib, saksoninchi yillarning ikkinchi yarmidan keyin Yassaviy mavzuida "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bir qancha maqolalar e'lon etildi. Ba'zi matnii xato va nuqsonlaridan qat'i nazar, 1991 yili Toshkentda "Hikmatlar" kitobining katta nusxada ommaga yetkazilishi madaniy hayotimizdagi muhim hodisa o'laroq e'tirof etilgandi. Bu kitob oradan uch yil kechgach, turk olimi Erxon Sazoiy To'pli tomonidan so'zboshi va she'riy matn to'liq tarjima qilingan holda Istanbulda nashr qilindi. Ochig'ini aytish va tan olish kerak, o'sha oshkoralik davrida ham "Ertaga Yassaviyga munosabat qanday bo'larkan? Qaysi olimni galdagi qurbonlik kutayotir?" - deganday hadiklar bor edi. Faqat mustaqillik ziyosi barcha hadik va to'siqlarga tubdan barham berdi. Ana shundan buyon Ahmad Yassaviy va izdoshlariga bag'ishlab juda ko'p ilmiy, ilmiy-ommabop tadqiqotlar yaratildi. "Devoni Hikmat" ning yangi nashrlari, Sulaymon Boqirg'oniy, Azim Xoja Eshon kitoblari chop bo'ldi. O'zbek olimlarining o'n beshdan ziyod ma'ruza va maqolalari Turkiyada bosildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining mumtoz adabiyot bo'limi xodimlari amalga oshirgan ishlar birma-bir sanalsa, ishonig, maqtanchoqlikka o'xshab ketishi mumkin. Shuning uchun men ikkiminginchi yildan keyin chiqarilgan kitoblarnigina eslatib o'tmoqchiman. Bular: "Xoja Ahmad Yassaviy: hayoti, ijodi va an'analari", "Ahmad Yassaviy", "Devoni Hikmat" (yangi topilgan namunalar). So'nggi kitobdagi she'rlar o'ndan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalardan terib-tanlab jamlangan. "Devoni Hikmat" ning qiyosiy-yig'ma matnini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham nihoyasiga yetay deb qoldi.

Umuman, adabiyot, til, tarix, falsafa, pedagogika sohalari mutaxassislarining yaqin o'nyillikda yassaviyshunoslikka qo'shgan hissalar bunday sarhisob etilsa, Yassaviy ijodiyotini tekshirish qanday ildamlaganligi, qanday yangi miqyos kasb etganligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ilmiy aniqlik va xolislik bor joyda esa, taxminbozlik, tarfakashlik kabi mahdudliklarga chek qo'yiladi. Bundan tashqari, bizda yaratilgan tadqiqotlarga, ayta'lik, tili tilimizga yaqin, diniy-axloqiy qarashlari mushtarak turk, uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq olimlarining munosabat va e'tiroflari bilan ham qiziqilsa ziyon qilmaydi. Darvoqe, muayyan mavzuda yuzaga kelgan ilmiy ishlarni imkon qadar bilishga jahd etmaslik, hukm va xulosalarda adashish va chalg'ishga yo'l ochadi.

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" (2004 yil, 10 sentyabr) gazetasida bosilgan "Xorijlik yassaviyshunos" nomli maqola buning xarakterli bir misolidir. Unda go'yo amerikalik sharqshunos Devin Di-Uis faoliyatidan bahs yuritish ko'zlangan bo'lsa-da, asosiy maqsad boshqa. Ya'ni Devin Di-Uisning tadqiqotlarini ibrat bilib, shu bahonada mustaqillikdan keyin o'zbek yassaviyshunoslari yaratgan ishlarni kamsitish va hech ikkilanmasdan ularga qo'l siltashga chorlashdir. Bunga asos nima? Bosh asos - manba masalasi. Go'yoki bizda yassaviyshunoslik "manbalar asosida emas, balki Ahmad Yassaviy ijodini tavsif va targ'ib etish yo'lidan" borgan emish. Shuning uchun "biz xorijiy yassaviyshunoslardan ortda" qolgan ekanmiz. Qadimiy manbalarga tayanmasdan biror-bir so'fiy ijodkorning ijodini tavsif va targ'ib etib ko'ring-chi, nimaga erishasiz? Quruq safsata, o'lik va taxminiy gaplardan boshqa hech narsaga.

Ilmda "ichki manbashunoslik", "tashqi manbashunoslik" istilohlari qo'llanilmagan bo'lsa hamki, amerikalik olimning Yassaviy va yassaviylik tariqati haqida ma'lumot beruvchi manbalarni "ichki" va "tashqi" deb ikkiga ajratishini maqola muallifi muhim hisoblaydi. Devin Di-Uis "ichki" manba sifatida esa birinchi bo'lib XVI asrda yashagan yassaviylik tariqatining shayxi Haziniy asarlarini qayd etadi. Ulkan turk olimi M.F.Kuprulizoda Haziniyning "Javohir ul-abror" asari bilan tanishgach, o'zining "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" nomli mashhur kitobini yozishga kirishgan. Shu faktning o'ziyoq yassaviyshunoslikda Haziniy merosi nechog'li qimmatga egaligini tasdiqlay oladi, albatta.

Haziniy asarlarining qo'lyozmalari Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. To'qsoninchi yillarning o'rtalaridan e'tiboran biz ularning fotonusxalarini olishga erishdik va "Javohir ul-abror" hozir nashrga tayyor.

1999 yili yosh tadqiqotchi N.Hasanov "Sulton Ahmad Haziniyning "Javohir ul-abror min amvojil bihor" asari va uning yassaviyshunoslikdagi ilmiy-tarixiy qimmatini" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. "Ahmad Mahmud Haziniy (hayoti va ijodi)" (Toshkent, 2001) monografiyasi ilm ahli tomonidan qiziqish ila kutib olindi.

"O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", Turkiyadagi "Tasavvuf" ilmiy-akademik jurnallarida e'lon qilingan "Haziniyning "Manba ul-abhor fi riyozil abror" asari haqida", "Haziniyning "Jomi' ul-murshidin" asariga doir", "Murshidlar silsilasi" kabi maqolalarni manbalarga suyanmasdan yozib bo'lmasligini anglash nahotki qiyin? So'fiy Muhammad Donishmandning "Mir'ot ul-qulub" asaridan Devin Di-Uis foydalangan bo'lsa, foydalangandir. Biz esa uni nashr ham ettirdik. Shuningdek, Yassaviyning piri Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot", "O'dobi tariqat" va Abdulholiq G'ijduvoniyning "Maqomoti Yusuf Hamadoni" risolalari o'zbekchaga tarjima qilinib chop etildi. Bular haqida balki kimlargadir xabar yetkazish yoki hisobot berish kerakdir? Yoki xalq maqolida ta'kidlanganidek, "oldingdan oqqan suv" haqiqatda qadrsiz bo'ladimi? Qadrsizlantirish mayli shu qadar maroqbxshmi?

Bundan qariyb bir yuz yetmish yil muqaddam Viktor Gyugo "San'at, bu - men, fan, bu - biz" degan bir gapni aytgan. Bunday o'ylab ko'rilsa, shu uchqur fikr fan va san'at mehnatining ham o'ziga xosligi, ham asosiy farqini anglashga undaydi. Ilmning bosh shartlaridan biri "sub'ektiv allomachilik" kayfiyatiga qul bo'lmaslikdir. Doimiy ravishda fan bilan mashg'ul bo'lmagan ulkan ijodkorlar ham buni nazardan soqit etmaganlar. Bu jihatdan buyuk Gyotening o'z ilmiy-tadqiqotlari to'g'risida: "... mening ishim - ko'pchilikning ishi, bunda faqat Gyote degan nom meniki", degan so'zlari e'tiborlidir. Shuning uchun biror-bir ilmiy mavzu yuzasidan qat'iy xulosa chiqarishda "Men bilaman" degan iqrordan ko'ra, "Men nimani bilmayman?", deb o'ylash foydaliroq. Ayniqsa, shu mavzuni o'zing maxsus o'rganmagan va yaratilgan tadqiqotlarning eng zarur qismidan ham bexabar bo'lsang. Mafkura qoliplariga muvofiq kelmagan ijodkorlarni kollektiv bo'lib qoralash sho'ro siyosati fanda joriy etgan "usul" edi. Ahmad Yassaviy shaxsi va ijodiyotini qoralashda shu usuldan keng foydalanilgandi. Keyingi paytlari esa ilmimizda ko'pchilik zahmat chekib qo'lga kiritgan ishlarni alohida bir kishi tomonidan inkor aylash yoki yo'qqa chiqarishga urinish tez-tez ko'zga tashlanayotir. Asosi bo'sh bu "usul" yana Ahmad Yassaviyning adabiy merosiga tatbiq etilayotgani hayratlanarli, albatta. Sovet zamonida qadimiy manbalarga asosan Ahmad Yassaviyning ijodi va ijodkorligiga ishtibohni kuchaytirish g'arazida suyanilgan bo'lsa, endi ular o'ziga bir maqsad uchun dastak qilinmoqda.

"Agar biz Fitratning "Ahmad Yassaviy" va "Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" nomli tadqiqotlarini ko'zdan kechirsak, - deyiladi maqolada, - olimning o'nlab manbalar bilan ish ko'rganiga guvoh bo'lamiz. Lekin keyingi yillardagi tadqiqotlarda ushbu manbalar bilan bog'liq fikr-mulohazalar uchramaydi".

Mana, ustod Fitratning "Ahmad Yassaviy" nomli birinchi maqolasini olaylik. Unda na tarixiy, na ilmiy, na tasavvufiy birorta eski manbaning nomi ham, muallifi ham tilga olingan. Biroq, bu - Fitrat manba bilan ishlamagan degani emas. Balki marhamat etib o'sha "o'nlab manbalar"ning nomini ayting, deganidir.

Fitratning ikkinchi maqolasida bir necha manbalarga murojaat qilinib, iqtiboslar keltirilsa-da, ulardan bevosita Yassaviyga tegishlilari beshtaga ham yetmaydi. Hech shubhasizki, "Lamahot" Ahmad Yassaviy hayoti, tariqati va izdoshlari faoliyatini o'rganishda nihoyatda qimmatli manba. Undagi zikri jahriya, shu silsila mansublari, Ahmad Yassaviyning nasabi, karomat va favqulodda hollari, undan keyingi ellikdan ortiq tasavvuf olimlarining tarjimai holi va boshqa masalalarga oid mulohaza-mal'umotlar har qanday tadqiqotchining fikr-qarashlarini boyitadi. Shu jihatdan u yassaviyshunoslikda tayanch bir manba vazifasini o'taydi. Ammo tazkira va manoqib xarakteridagi bunday asarlarning birortasi ham Ahmad Yassaviyning adabiy-ijodiy qiyofasini yorqin gavdalantirib berolmaydi. Shuning uchun u yo bu manba bilan shaxsan tanishmasdan talab qo'yish va ko'rsatma berish hech vaqt o'zini oqlamaydi. Qolaversa, sof tasavvufshunos bilan boshqa soha vakillari - adabiyotshunos, tilshunos yoxud faylasuflarning manbalarga munosabati va ehtiyojini aslo qorishtirmaslik kerak, hech payt mubolag'aga ham erk bermaslik lozim. Fitrat "Lamahot", "Samarat ul-mashoyix" kabi manbalarni tahlil qilib yassaviya yo'nalishidagi o'nlab shoirlarni emas, bor-yo'gi oltita shoirning nomini aniqlagan, xolos.

Rus tilshunos olimi A.K.Borovkovning 1948 yili "Sovetskoe vostokovedenie" nomli kitobda bosilgan maqolasiga (A.Eshonboboev maqolasida uning nomi negadir "Opredelenie yazCka xikmatov Axmada Yasevi" deb ko'rsatilgan. Holbuki, asosiy sarlavha "Ocherki po istorii uzbekskogo yazCka"dir - I.H.) faqat adabiyotshunoslar emas, o'zbek tilshunoslari ham tanqidiy munosabatlarini bildirishgan. Filologiya fanlari doktori, professor A.Alievning xulosasi bo'yicha, nomi ko'rsatilgan tadqiqotida Borovkov "Yassaviy she'rlarini tahlil etganda, undagi ayrim misralar turli nashrlarda bir-biridan ba'zi so'z, so'z formalari bilan farqlanishiga ahamiyat berib, ko'proq "Boqirg'on kitobi"ga qiyoslab, birtomonlama o'rgangan yaqqol ko'rinadi"("O'zAS", 1993, 29 oktyabr). "Xorijlik yassaviyshunos" maqolasida mening bilanim-bilgan, aytganim-aytgan qabilida ish ko'rilib, Borovkov maqolasi xususida bildirilgan biror-bir tanqidiy fikr va mulohaza e'tiborga olinmaydi. Bu ham yetmaganidek, rus sharqshunosining asosiy xulosalari buzib bayon etiladi. Mana bu jumalarga diqqat qiling: "Sharqshunos A.K.Borovkov "Devoni Hikmat" she'rlarining asosiy qismini XV asrning birinchi yarmida yaratilgan degan fikrni bildirgan edi". Borovkov esa "Devoni Hikmat"dagi she'rlarning "asosiy qismi XV asrning birinchi yarmida yaratilgan", deb aytmagan. Birinchidan, u Yassaviy hikmatlari asrdan asrga, avloddan avlodga og'zaki tarzda yetib kelib, ko'psonli muxlislar, o'quvchilar tomonidan ko'chirilganligini ta'kidlagan: "XikmatC Yasevi peredavalis izustnCm putem i perepisCvalis mnogochislennCmi chitatel'ami". Ikkinchidan, "Po vsem priznakam formirovatsya sborniki xikmatov stali ne ranee vtoroy polovinC XV v.", deyilgan. Bu gap "yozilgan", "yaratilgan" degan mazmunni aks ettirmaydi. Mustaqil she'r yaratish bilan, xalq orasida tarqalgan mavjud she'rlarni jamlab to'plamlar tuzish tamoman boshqa-boshqa hodisa. A.K.Borovkov domlaning mehnati, xolislik bilan bayon qilingan fikr-mulohazalarini qadrlash joiz. Ayni paytda uning tasavvuf va tasavvufiy adabiyot mutaxassisi bo'lmaganligini ham unutmazlik lozim. Bunga ishonch hosil etish uchun olimning mazkur maqolasidagi bir qancha faktlarga e'tibor berish yetarlidir. Masalan, u Muhammad Olim Hojining "Lamahot min nafahot il-uns" asarida Hikmat majmualarida tez-tez uchraydigan Yassaviyning ikki she'ri o'rin olganligini aytib, quyidagi baytni iqtibos keltiradi:

Orif ishqijon mulkida alam tortsa,
O'n sakkiz ming qamug'olam bulbul bo'lur.

Bu baytdan ma'no chiqarish qiyin. Zero, ishq hech payt "jon mulkida" alam tormaydi - dard, alam qo'zg'aydi. Olamning "bulbul" bo'lishi ham tasavvurga sig'maydi - u jo'shishi, g'alayon qilishi mumkin. Baytdagi ma'no orif oshiqning hol quvvati va uning tashqi olamga ta'sir o'tkazishi haqida bo'lib, "Lamahot"da:

Orif oshiqjon mulkida alam tortsa,
O'n sakkiz ming qamug'olam g'ulg'ul bo'lur, -

deb bitilgan. Yoki "Har kim ko'rsang Xizr bil, har tun ko'rsang Qadr bil" baytini u: "vsyakogo, kogo tC uvidish, chti za XCzra, vsyakoy nochi, kotoruyu tC vidish(perejivaesh) znay tsenu", deb tarjima qilganki, Qadr tuniga ishorat inobatga olinmagan. Bu esa misra mazmunini jo'nlashtirgan.

Tasavvufiy she'r matnining o'ziga xos talab, qonuniyat va murakkabliklari bor. Faqat manba ko'rib, tasavvufga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib matn tahlilida yutuqqa erishish amri mahol. Afsuski, bunga misol ko'p. Ahmad Yassaviyning

This is not registered version of TotalDocConverter

muallifning dastlabki asosiy asosida mualliflariga qaytarilgan. Aylash ham ana shu nochorlikni xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Axir, "Devoni Hikmat"ning qadimiy nusxasi yo'q deb qo'l qovushtirib o'tirib bo'lmasligini nufuzli tadqiqotchi olimlarimiz qayta-qayta gapirishgan. Filologiya fanlari doktori A.Hayitmetov domla yaqindagina bosilgan "Yassaviy satrlaridagi farqlar" nomli maqolasida "Yassaviyning tasavvufiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalari uning she'riyati orqali ifodalangan va namoyon bo'lgan. Binobarin, uning so'fiylikini, donishmandligini tan olish, she'riyatini ham tan olish degan gapdir", - deb yozadi. Ayrim chet ellik olimlar, jumladan, Devin Di-Uis ham xuddi mana shu haqiqatni tan olmaslik tarafdori. Uningcha, "Bugungi kunda "Devoni Hikmat" nomi bilan mashhur bo'lgan she'riy kompilyatsiya (iqtibos) odatda Ahmad Yassaviyga nisbat beriladi, ammo yassaviya tariqatining ichki manbalari ham ushbu to'plamning Ahmad Yassaviyning individual ijodi mahsulini ekanligini shubha ostiga oladi". "Shubha ostiga" olinishlar yangilik emas va ular, ehtimol, hali ancha davom etar. Lekin "Hikmatlar" kitobi keyinchalik til jihatidan va ma'no tomonidan qanchalik o'zgarishlarga duchor bo'lmasin "uning asl vazni avvalgi holicha qolgan"ligini (Maqsud Shayxzoda) bilamiz-ku! Hikmatlarning g'oya va obrazlar tarkibini tamoman isloh qilib yoki butunlay o'zgartirib bo'lmasligiga nahotki fahmimiz yetmasa?

So'fi Olloyor bir buyuk kitob kimdan yodgor qolganligini so'zlagan: Yassaviydanmi yoki uning "kompilyatsiya"chilaridanmi? Shayboniy va Ubaydiy Yassaviyning sharaflab hikmatlar ta'sirida she'rlar yaratganida ularga "individual ijod mahsulini" deb qaramaganmi? Bu va shu kabi yana ko'plab savollar Devin Di-Uisning nuqtai nazariga ishtiboh bilan qarashni talab etadi.

Ochig'ini aytganda, uning asosiy xulosalari yo Fitrat yoki Borovkov xulosalarining qaytarig'idir.

Masalan, Fitrat domla: "Qo'limizda bo'lg'on "Tazkirat ul-avliyo"larning hech biri Ahmad Yassaviyning "hikmat"laridan xabar bermagani holda, hammalari Hakim Sulaymon otaning ko'b "hikmat"lari borlig'ini bir og'izdan aytib turadilar", desa, Devin Di-Uis bunday deydi: "Ahmad Yassaviyga shogird hisoblanmish Hakim otaning shoirligi xususidagi ma'lumotlar manbalarda ustoziga nisbatan ancha ilgari va ko'proq uchraydi". Shumi ilmiy yangilik?

Devin Di-Uisning "Mashoyixi turk i xvadjagan: pereosmC<slenie svyazey mejdu sufiyskimi traditsiyami yassaviya i nakshbandiya" (Sufizm v Sentralnoy Azii. Sankt-Peterburg, 2001, str. 211B7"243) nomli maqolasida ham tasavvuf va tariqatlar tarixidan xabardor kishining fikr-qarashlarini boyitadigan zo'r bir ilmiy yangilik uchramaydi. Qaerda va qaysi tilda bo'lmasin, yurtimizda kechgan tasavvuf jarayoni va undagi tariqatlar hayoti hamda tarixi o'rganilgan tadqiqotlardan xabardor bo'lish, albatta, foydalidir. Ammo ularning ilmiy qimmatini belgilash, yangiliklarini aniqlashda zinhor-bazinhor havaskorlik saviyasiga tayanib qolmaslik kerak. Zero, olimlik iqtidori bu - chumchuqni - lochin, lochinni - chumchuq deyish emas: har bir narsani o'z nomi bilan atash va o'zining asl qiyofasida ko'rsata olishdir.